



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 254-262 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

PENSIYA TAYINLASH VA TO'LASH MUOMALALARINING ANALITIK VA SINTETIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Nurmanov Din-Axmed Tileubayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada byudjetdan tashqari pensiya jamg'armalarining tashkiliy tuzilishi, bu boradagi xalqaro tajriba, shuningdek, O'zbekistonda pensiya va nafaqalarni moliyalashtirish manbalari tahlili amalga oshirilgan. Pensiya jamg'armalarining hisobini takomillashtirish bo'yicha ba'zi mulohazalar berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy ta'minot, pensiya, nafaqa, moliyalashtirish manbalari, moliyaviy tahlil, taqsimlash usuli, jamg'arib boriladigan usul.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКОГО И СИНТЕТИЧЕСКОГО УЧЕТА ОПЕРАЦИЙ ПО НАЗНАЧЕНИЮ И ВЫПЛАТЕ ПЕНСИИ

Нурманов Дин-Ахмед Тилеубаевич

Соискатель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В статье проведена организационная структура внебюджетных пенсионных фондов, международный опыт в этом отношении, а также проведен анализ источников финансирования пенсий и пособий в Узбекистане. Даны некоторые комментарии по совершенствованию учета пенсионных фондов.

Ключевые слова: социальное обеспечение, пенсия, льготы, источники финансирования, финансовый анализ, метод распределения, метод накопления.

IMPROVEMENT OF ANALYTICAL AND SYNTHETIC ACCOUNTING OF PENSION APPOINTMENT AND PAYMENT TRANSACTIONS

Nurmanov Din-Axmed Tileubayevich

Researcher at the Tashkent State University of Economics

Annotation. The article describes the organizational structure of extra-budgetary pension funds, international experience in this regard, and also analyzes the sources of financing pensions and benefits in the Republic of Uzbekistan. Some comments are given on improving the accounting of pension funds.

Key words: social security, pension, benefits, sources of financing, financial analysis, distribution method, accumulation method.

Kirish. Insoniyat to'xtovsiz davom etuvchi globallashtirish jarayonida ijobiy natijalarga erishish uchun oldinga qo'yilgan maqsadlar yo'lini aniq belgilovchi tizimli talablarga ehtiyoj sezadi. Bu borada bir shaxsdan butun bir jamiyat, davlat manfaatlarigacha bo'lgan ulkan qamrovni o'zida mujassamlashtirgan qoidalar majmuining mavjudligi esa maqsadlarga erishish yo'lida huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz inson huquq va erkinliklarining mustahkam huquqiy asosi hisoblanadi. Konstitutsiya 27 ta yangi modda bilan to'ldirildi, ularning soni 155 taga etgan bo'lsa, konstitutsiyadagi normalar soni 275 tadan 434 taga ko'paygani holda, amaldagi Konstitutsiyamiz 65 foizga yangilandi [1].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratibgina qolmas-dan, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Konstitutsiyamizning 1-moddasida "O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi alohida belgilab qo'yildi. Ya'ni insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlandi. Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat o'ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar soni 3 barobar ko'paydi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158 –sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida ham o'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga etkazish, sog'lom va faol keksalikni ta'minlash, professional ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish, Nuronionlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mamlakatda kambag'allik darajasini 2 barobarga qisqartirish kabi ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berilganligi [2] mamlakatda ijtimoiy davlatchilik tamoyillarini izchil hayotga joriy etilayotganligining yaqqol ifodasidir.

Xususan keyingi yillarda O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmogda. 15.02.2023 yil dagi O'RQ-817-son Qonuni bilan Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tash davrida bajaradigan har qanday ishi, agar ushbu ish bajarilgan davr uchun jazoni ijro etish muassasasi tomonidan ijtimoiy soliq to'langan bo'lsa ish stajiga inobatga olinishi yo'lga qo'yildi[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.11.2023 yildagi PQ-353-son "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori bilan 2024 yil 1 yanvardan boshlab: fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun amaldagi tartibga qo'shimcha ravishda ularning xohishiga ko'ra Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham murojaat qilish huquqi berildi; fuqarolarga davlat pensiyalari tayinlanganidan so'ng ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki AT "Xalq banki"ning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratildi; Pensiya jamg'armasi

tuman (shahar) bo'limlari tomonidan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larni olish huquqini beruvchi sertifikat berish tartibi bekor qilindi [4], 2025 yil 1 martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etilishi belgilab qo'yildi. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilishi asnosida, ushbu yo'nalishdagi amaliy ishlarning huquqiy asosini tashkil etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va bir-birini takrorlovchi normalarni bartaraf etish zarurati tug'ilmoqda. Shu bilan bir qatorda, pensiya tayinlash va to'lash sohasida hisob-kitoblarning shaffofligini oshirish, uni xalqaro andozalarga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyoda pensiya tizimining ikki asosiy turga ajratiladi:

- birdamlikka asoslangan avlodlarning mas'uliyatlilik tizimi, mazkur tizimda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan avlod o'zidan oldingi avlodning pensiya ta'minotini moliyalashtirish borasida o'ziga xos tovon puli to'laydi (shu tariqa kelajak avlod hozirgi avlodning pensiya ta'minotini moliyalashtiradi);

- jamg'arib borishga asoslangan tizim, bunda hozirda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'zlarining keksalikda farovonligini ta'minlashlari uchun pensiya yoshigacha mablag' jamg'arib borishlari talab etiladi. Bugungi kunda mazkur ikki tizim mamlakatimiz pensiya ta'minoti tizimining asosini tashkil qiladi [5]. Ayrim tadqiqotchilar pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy asosini ustun darajada taqsimlanuvchi komponentlar tashkil etishi zarur [6] deb hisoblashsa, boshqalari jamg'ariladigan komponentlar tarafdori hisoblanadilar [7]. Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan – aralash pensiya tizimlari amal qilmoqda. Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to'lanayotgan pensiya darajasi nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi [8]. AQShning Arizona universiteti professori J. Peng tadqiqotlarida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e'tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o'zgarishlarni tadqiq qilgan [9]. Iqtisodchi olim Yu.N.Borisenko tadqiqotlari fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadi ekanligi, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanishi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltirishi kabilar bayon qilingan [10].

Tadqiqotchi Majidovning maqolasida “ Demografik omillar ta'sirida aholi tarkibida pensiya yoshidagilar ulushining ortib, mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarib borishi

barqaror, ishonchli moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan pensiya tizimini yaratishning maqbul modelini tanlashni taqozo etishi" haqida to'xtalib o'tadi[11].

Mahalliy tadqiqotchilardan yana biri, Tursunov "Pensiya ta'minotining eng muhim iqtisodiy funksiyasi mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Pensiya ta'minoti-davlatning ijtimoiy ta'minot siyosatining muhim va ajralmas qismidir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ta'minot tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash, siyosiy barqaror-likni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shart-sharoitlaridan biri" ekanligini ta'kidlaydi[12].

Tadqiqotchi Murodullaeva o'z izlanishlarida xorijiy mamlakatlarning pensiya tizimini tahlil qiladi. Uning fikricha, Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya etishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi byudjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi [13].

Karimjonov nogironlik pensiyasini tayinlashning xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganadi, uning fikricha, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali nogironlik pensiyasini tayinlash borasidagi muammolarni hal etish imkoniyatlari oshadi [14].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pensiya tayinlash va ularning hisobini yuritish borasida kam sonli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu o'z navbatida tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, umumiy metodologik asos sifatida dialektika, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, analogiya, qiyoslash kabi nazariy metodlar; kuzatish, taqqoslash, kabi empirik metodlar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Pensiya tizimi aholining mehnatga layoqatsiz va muhtoj qismining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutadi. Fuqarolarni qarilikda ta'minotini ta'minlash, mehnat faoliyati yaunida pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilanuvchi tegishli miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadlaridandir.

O'zbekistonda turmush darajasi oshib borilayotgani, sihat-salomatlikni yaxshilab borilayotgani natijasida odamlar uzoq umr ko'riyaptilar. Quyidagi jadvalda Respublikamizda yildan-yilga pensiya va nafaqalar oluvchilar soni ko'payishini ko'ramiz. Bunga asosiy sabab aholi soni ko'payishi va umr davomiyligining o'sib borishidir (1-jadval).

Jadvalning ko'rsatishicha, 2015 yilga nisbatan jami yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar soni 2023 yilning yanvar oyida 2,5 baravarga o'sgan. Shu davrlarning fevral oyida esa 1,5 baravarga oshganligini kuzatamiz.

Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, dunyo mamlakatlarida kuzatilayotgan tendensiyalarni hisobga olgan holda pensiyaga chiqish yoshini uzaytirish borasida ham o'ylab ko'rishning vaqti etdi. O'zbekistonda ham bu yoshni 63 yoshga ko'tarish lozim. Pensiyaga chiqish yoshini 63 yoshga ko'tarishning pensiya ta'minoti tizimi uchun bir

qator afzalliklari mavjud. Bunda pensiya ta'minotiga yuklama pasayishi bilan bir qatorda, xodimlarning ish haqidan qo'shimcha 3 yil davomida pensiya fondiga ajratma qilinadi.

1-jadval

Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan 2015-2023 yillar yanvar-fevral oylarida yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar soni to'g'risida tahliliy ma'lumot

	Yillar	Yanvar			Fevral		
		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
			pensiya	nafaqa		Pensiya	nafaqa
1.	2015	13 629	11442	2187	16 577	13960	2617
2.	2016	18 652	16226	2426	20 188	17295	2893
3.	2017	21 203	17900	3303	24 669	20467	4202
4.	2018	26 029	22084	3945	27 200	22 679	4521
5.	2019	28 433	23835	4598	28 599	23 752	4 847
6.	2020	26 316	21626	4690	31 388	25 620	5 768
7.	2021	27 561	22197	5364	28 351	22 139	6 212
8.	2022	29 991	24010	5981	31 538	24 480	7 058
9.	2023	33 609	22724	10885	25 218	20 800	4 418

Manba. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Bularning barchasi pensiya tayinlash va to'lash borasida analitik va sintetik hisob masalalarini takomillashtirishni talab qiladi. Mazkur sohada hisob yuritish ishlari byudjet hisobining bir qismini tashkil etishini hisobga olgan holda, quyida ularning ba'zi bir jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Pensiya jamg'armalarida schyotlarning o'zaro bog'lanishi haqida fikr yuritganda bir masalaga e'tibor qaratish lozim. Bu schyotning birdaniga ham aktiv va ham passiv schyot bo'lishidir. Agar bunday debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar mavjud bo'lsa, ularni alohida schyotlarga, ya'ni debitorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar va kreditorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarga bo'linishi kerak. Masalan 15 – "Turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar" schyotida 156 subschyot – "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar" va 159 subschyot – "Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisobkitoblar". Bizning fikrimizcha 156 subschyotni quyidagi ikkita alohida subschyotga bo'lish kerak. 156 subchyot – "Hisoblangan to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar" va 157 subschyot – "Tushgan mablag'larga to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar". 159 subschyotni esa 158 subschyot – "Boshqa debitor bilan hisobkitoblar" va 159 subschyot – "Boshqa kreditorlar bilan hisobkitoblar" ajratish kerak.

Majburiy pensiya sug'urtasi tizimining samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatning mehnatga layoqatli aholisiga yuklangan demografik yuk darajasiga bog'liq. Hozirgi vaqtda ko'p mamlakatlarda kuzatilayotgan salbiy demografik hodisalar (joriy tug'ilishning pasayishi, aholining umumiy sonidagi qariyalar ulushining ko'payishi) har bir pensionerga to'g'ri keladigan iqtisodiyotda band bo'lgan fuqarolar sonining kamayishiga olib keladi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armalarida xarajatlar hisobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 12 dekabrda 91-son O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 27 dekabrda 2853-son bilan ro'yxatga olingan.) [15] va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 10 sentyabrda 125-son O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 20 oktyabrda 3078-son bilan ro'yxatga olingan.) [16] normativ hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

102 403 «Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'laridan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar» subschyotida byudjet tashkilotlarining tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlaridan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar hamda ularning sarflanishi hisobga olinadi.

Ushbu mablag'larning kelib tushishi 102 403 «Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'laridan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar» subschyotining debetida va 152 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan debitor qarzlari» subschyotining kreditida aks ettiriladi, xarajati esa 102 403 «Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'laridan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar» subschyotining kreditida va 111 300 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlariga o'tkazilgan mablag'lar» yoki 343 200 «Byudjet tashkilotlarining xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotlar debetida aks ettiriladi.

152 300 «Byudjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha debitor qarzlari» subschyotida byudjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha hisob-kitoblardan so'ng yuzaga keladigan debitor qarzlari hisobga olinadi.

Byudjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha debitor qarzlari kelgusi hisob-kitoblarda inobatga olinadi.

152 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan debitor qarzlari» subschyotida byudjet tashkilotlarning xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiya, davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalari va boshqa to'lovlari bo'yicha debitor qarzlari hisobi yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan pensiya, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha va boshqa to'lovlar hisoblanganda 152 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan debitor qarzlari» subschyotining debetida va 343 200 «Byudjet tashkilotlarining xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotining kreditida aks ettiriladi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlaridan tashkilot hisobvarag'iga kelib tushgan summalarga 102 403 «Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'laridan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar»

subschyoti debetlanadi va 152 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan debitor qarzlari» subschyoti kreditlanadi.

Analitik hisob O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarni oluvchilar bo'yicha alohida holda yuritiladi.

342 300 «Byudjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotlarida tashkilotlar xodimlarining jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari bo'yicha badallari hisobi yuritiladi. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar qonunchilik hujjatlariga asosan tartibga solinadi.

Tashkilot xodimlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar hisoblanganda 342 100 «Byudjet tashkilotlarining byudjetga to'lovlar bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotning debeti va 342 300 «Byudjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotning krediti bo'yicha aks ettiriladi. Hisoblangan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar o'tkazib berilganda 342 300 «Byudjet tashkilotlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha kreditor qarzlari» subschyot debetlanadi va tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar kreditlanadi.

342 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan sug'urta badali to'lovi bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotida tashkilotlarning xodimlariga hisoblangan ish haqlaridan byudjetdan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ajratma qilinadigan badallari hisobi yuritiladi.

Xodimlarning hisoblangan ish haqlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlangan majburiy badallar summolari 343 400 «Byudjet tashkilotlarining xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotning debetida va 342 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan sug'urta badali to'lovi bo'yicha kreditor qarzlari» subschyotning kreditida aks ettiriladi. O'tkazib berilgan badallar summolari 342 400 «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bilan sug'urta badali to'lovi bo'yicha kreditor qarzlari» subschyot debetida va tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar kreditida aks ettiriladi.

Xalqaro miqyosida hammaga tushunarli bo'lgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tgan va o'tyapti. Shuning uchun ham O'zbekistonda xo'jalik hisobidagi subyektlarga o'xshab byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armalari buxgalteriya balansini xalqaro standartlar darajasiga o'tkazish yoki transformatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan maqsad bu tashkilotlarining balansi hamma foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lardi.

Xulosa va takliflar.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida kuzatilayotgan aholining qarishi, mehnatga layoqatli bandlar soniga nisbatan pensionerlar sonining muttasil o'sish tavsifiga egaligi pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga xavf tug'dirmoqda, shundan kelib chiqqan holda, pensiya fondlarini xususiy sektor ko'magida rivojlantirish, pensiya yoshiga etgan bo'lsa-da pensiyaga kech chiqish istagida bo'lgan fuqarolarni rag'batlantirish, korporativ

pensiya va nodavlat pensiyalar joriy etilgan davlatlar tajribalarini o'rganish va ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish hamda amaliyotga tadbiiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Pensiya va nafaqa hisob-kitoblarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 10 sentyabrdagi 125-son O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'iga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 20 oktyabrda 3078-son bilan ro'yxatga olingan) binoan amalga oshiriladi. Ushbu standart talablariga rioya qilish byudjet tashkilotlarida yagona uslub va tartib-tamoyillar asosida hisob-kitob yuritilishiga imkoniyat yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlari tomonidan ijtimoiy sug'urta va ta'minot badallarini to'lash yo'llarini qidirib topish, xufyona mehnatga haq to'lash yo'llarini oldini olish natijasida pensiya jamg'armalari mablag'larining ko'payishiga sharoit yaratiladi.

Tadqiqot natijasi bo'yicha biz quyidagilarni taklif etamiz:

1. nodavlat byudjetidagi Pensiya jamg'armalari tashkilotlarida buxgalteriya balanslarini xalqaro standartlariga mos keltirish yoki transformatsiya qilish kerak.
2. debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarni alohida schyotlarga bo'lish kerak: debitorlik va kreditorlik majburiyatlarni alohida-alohida qayd qilish kerak.
3. duynyo mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda pensiya yoshini oshirish maqsadga muvofiq ko'riladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158 –sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, <https://lex.uz/docs/6600413>
3. O'zbekiston Respublikasining 15.02.2023 yil dagi O'RQ-817-son "O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuni, <https://lex.uz/docs/6384468>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktabrdagi PQ-353-son "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6650097>
5. Vaxabov A. V. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferentsiya//Toshkent.: "Universitet. – 2017. – C. 21-27.
6. Disney R. Public pension reform in Europe: policies, prospects and evaluation // The World Economy. 2003. Vol 26. № 10. P. 1425–1445.
7. Соловев А.К. Пенсионные системы в контексте страховых принципов. // Журнал НЭА, №3(15), 2012. С.145.

8. Stalebrink O. J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans //The American Review of Public Administration. – 2014. – Т. 44. – №. 1. – С. 92-111.

9. Peng J. State and local pension fund management. – Routledge, 2008.

10. Borisenko N. Yu. Пенсионное обеспечение: учебник //М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К. – 2009. – Т. 576.

11. Majidov Nurali Maxmudovich Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga solishda davlatning roli // Экономика и финансы (Узбекистан). 2017. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pensiya-zham-armasi-faoliyatini-tartibga-solishda-davlatning-rol-i> (дата обращения: 25.03.2024).

12. Tursunov J., Jumabaeva K. O'zbekistonda Pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari //Journal of Fundamental Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 38-45.

13. Murodullaeva Sh. Nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirishnin xorij tajribasi //Journal of Fundamental Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 50-55.

14. M.Karimjonov Опыт зарубежных стран в отношении регулирования пенсий по инвалидности // Review of law sciences. 2017. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-zarubezhnyh-stran-v-otnoshenii-regulirovaniya-pensiy-po-invalidnosti> (дата обращения: 25.03.2024).

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 12 dekabrda 91-son O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 27 dekabrda 2853-son bilan ro'yxatga olingan. www.lex.uz

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 10 sentyabrda 125-son O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 20 oktyabrda 3078-son bilan ro'yxatga olingan. www.lex.uz

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

